

Viloyat ijtimoiy-siyosiy gazetasi

1928-yil 11-dekabrda asos solingan

# HAQIQATI

2025-yil 19-fevral / CHORSHANBA / № 9 (13770)

## “KOMPANIYA-KOOPERATIV-DEHQON XO‘JALIGI” ilg‘or tajribalar asosi



Bunyodkor xalqimiz qadim-qadimdan zaminimizning har bir qarich yerini, har siqim tuprog‘ini e‘zozlab, qadrlab keladi. Uni rizq-ro‘z, tiriklik va baraka manbai, deya ardoqlaydi. Xalq farovonligi esa har zamon va davrning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan.

### ▼ Kun tartibi

Joriy haftada O‘rta Chirchiq tumanida o‘tkazilgan “Toshkent viloyatida ijaraga berilgan va tomorqa yer

maydonlarida “Kompaniya-kooperativ-dehqon xo‘jaligi” tamoyili asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning

zamonaviy usullari” mavzusidagi amaliy seminar ham aynan shu dolzarb masalaga bag‘ishlandi. Viloyatning barcha tuman va shahar hokimlari, sektor rahbarlari,

hokim o‘rinbosarlari, faol nuroniylar hamda mahallalar raislari ishtirokida bo‘lib o‘tgan amaliy seminar tumanida bu borada amalga oshirilayotgan ilg‘or tajribalar o‘rganildi.

(Davomi 2-sahifada) ▶

### ▼ Бизнинг шарх

## Дастурга амал – келажакка тамал

Инсон туғилибоқ мана шу бепоён оламнинг бир парчаси, она табиатнинг ажралмас бўлагига айланади. Бандаи одам ўзини рўйи заминдан айро тасаввур қилолмайди. Шундай экан, дунё тамаддуни ҳам барчамизнинг қувончимиз, унинг йўқотишлари-ю, муаммоси эса бани инсоният дардидир. Зеро, бугун биз атроф-муҳит ифлосланиши, иқлим ўзгаришлари, бесамар фойдаланилаётган табиий ресурсларнинг камайиб бораётганлиги билан боғлиқ чинакам глобал муаммолар гирдобидамиз. Бу эса барқарор ривожланишга барчанинг эътиборини қайта ва яна қайта қаратишни тақозо қилади.

3



### Viloyat bo‘ylab

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi raising birinchi o‘rinbosari Otabek Umarov hamda Milliy Paralimpiya qo‘mitasi raisi Muxtorxon Tashxodjayev boshchiligidagi mas‘ullar YUQORI CHIRCHIQ tumanida sport yo‘nalishi rivojlanishini o‘rganishdi. Tashrif davomida mehmonlar sportchilarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, Olimpiada ishtirokchilari, xalqaro turnirlar g‘oliblari bilan suhbatlashishdi. Yakunda tumanida stol tennisining ommaviyligini oshirish bo‘yicha kerakli tavsiyalar berildi.

**OQQO‘RG‘ON tumanida** investisiya loyihasi 75 ming AQSH dollari bo‘lgan kichik GES ishga tushirilmoqda.

Stansiya inson omilisiz, zamonaviy, yuqori samarador gidroagregatlar yordamida to‘liq avtomatlashirilgan tizim orqali ishlaydi. GES to‘la quvvat bilan ishga tushgach, hududdagi 360 ta xonadon uzluksiz, ekologik toza elektr energiyasi bilan ta‘minlanadi.

**QIBRAY tumanidagi** “Bunyodkor” mahallasida «Tashabbusli byudjet» loyihasi doirasida 800 mln. so‘m mablag‘ evaziga zamonaviy kutubxona binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. 1 ming 500 dan ortiq kitob fondiga ega kutubxonada bir vaqtning o‘zida 30 ga yaqin kitobxonlar mutolaa qilishlari mumkin.

**YANGIYO‘L shahrida** «Rahbar va yoshlar» uchrashuvi o‘tkazildi. Muloqotda yoshlarni qiziqtirayotgan masalalar muhokama qilinib, muammolarga yechim izlandi.

**BEKOBOD tumani** hokimi Sh.Do‘sbekov sport murabbiylari bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. Unda tuman hokimi olis hududlarda ham sportga e‘tiborni kuchaytirish lozimligini ta’kidladi. «Vatan tayanchi» otryadlari o‘rtasida «maktab – tuman – viloyat – respublika» darajasida sport musobaqalari va ijodiy tanlovlar o‘tkazish bo‘yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

## KECHAGI YECHIM BUGUNGI MUAMMOGA MOS KELMAYDI

Mamlakatimizda rahbar va yoshlar uchrashuvini o‘tkazish yaxshi an‘anaga aylangan. Bu yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlarini muhokama etish yo‘lidagi muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Yaqinda davlatimiz rahbarining yoshlar bilan o‘tkazgan muloqotlari ham O‘zbekiston yoshlari hayotida yana bir yangi sahifa bo‘ldi. Video-selektor shaklida o‘tgan uchrashuvda Toshkent viloyatining faol yoshlaridan biri sifatida ishtirok etdim. Yurtboshimizning otalarcha g‘amxo‘rligi aks etgan barcha so‘zlarida ulkan ma‘no, porloq kelajakka ishonch borligi yaqqol ko‘rinib turdi.

intiluvchan, iqtidorli yoshlar munosib rag‘batlantiriladi, ularning g‘oyalari qadrlanadi, fikrlari qo‘llab-quvvatlanadi. Menimcha, bugungi kunda har bir yosh yetakchi bo‘lmog‘i lozim. Har bir lider: “Ey, tengdoshim ko‘zingni och, dunyo qaysi tomonga qarab ketyapti!? Qara! Ko‘r! Ibrat ol! Harakat qil! Intil! Rivojlan! Rivojlantir!” – deyishi lozim.

Uchrashuvda yurtimiz yoshlari uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari so‘zining boshidanoq bu uchrashuvdan mamnun ekanini ta’kidlab, yoshlarni xalqimizning oltin fondi, deb atadi.

Haqiqatan ham yurtimizda yoshlar uchun kundan-kunga imkoniyatlar ko‘paymoqda. Ilgari oliy ta’limda bitta o‘rin uchun kamida 10 nafar bola kurash olib borar edi. Qisqa davrda oliygohlar soni 3 barobar oshirilgani natijasida



### TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI YOSHLAR MUHOFAZASI

Dunyodagi hech bir davlat rahbari yoshlar bilan bu tarzda keng formatda, aniq reja-maqсад bilan, barcha soha rahbarlarini birlitirgan holda uchrashuv qilmasa kerak.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Kechagi yechim bugungi muammoga mos kelmaydi”. Dunyo soniya sayin o‘zgarib bormoqda. Ushbu o‘zgarishlar davomida yoshlarimiz tomoshabin bo‘lib turmay, faqat va faqat oldinga intilishi, harakat qilishi, doim izlanishda bo‘lishi bugungi kun haqiqati ekanligini yana bir bor his qildim.

Darhaqiqat, biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, rag‘batlar benihoya keng. Qaysi yo‘nalishda bo‘lmasin faol,

endi OTMlarga 42 foiz yoshlar qamrab olinmoqda. Xotin-qizlarning shartnoma to‘lovi davlat tomonidan qoplab berilayotgani hisobiga, bugun ularning soni 11 karra ko‘paydi. Shu bilan birga, dunyodagi nufuzli universitetlarda tahsil olayotgan yoshlarimiz soni 1 ming 500 dan ortiqni tashkil qilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda o‘z sohalarida muvaffaqiyatga erishayotgan o‘g‘il-qizlar safi tobora kengaymoqda. Ayniqsa, ularning tadbirkorlik sohasida qo‘lga kiritayotgan yutuqlari salmoqli. Uchrashuvda davlatimiz rahbari ana shunday yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan uchta muhim hujjat imzolanganini ma‘lum qildilar.

(Davomi 2-sahifada) ▶

## ЎЗБЕКНИНГ МАТОНАТ ТИМСОЛАРИ

Улар сафида вилоятимизнинг Тўрт қаҳрамони ҳам бор!

4

### ▼ Статистика бурчаги

#### ВИЛОЯТНИНГ ДОИМИЙ АҲОЛИСИ

Ташкент вилояти статистика бошқармасининг дастлабки маълумотларга кўра, 2025 йилнинг 1 январь ҳолатига вилоятда доимий аҳоли сони 3 108,5 миң кишини ташкил қилди ва ўтган йил бошидан 56,7 миң кишига ёки 1,9 фоизга кўпайди. Шундан, шаҳар жойларида 1 554,3 миң кишини (жами аҳоли сонининг 50 фоизи) ва қишлоқ жойларида 1 554,2 миң кишини (50 фоиз) ташкил этди.

#### ТАШҚИ САВДО АЙЛАНМАСИ

2024 йил январь-декабрь ойларида вилоятнинг ташқи савдо айланмаси 5891,6 млн. АҚШ долларига етди ва 2023 йилнинг мос даврига нисбатан 108,6 млн. АҚШ долларига ёки 1,9 фоизга кўпайди. ТСАда экспорт ҳажми 1 923,6 млн. АҚШ долларига ва импорт ҳажми 3 968,0 млн. АҚШ долларига етди.

#### ЯЛПИ ХУДОДИЙ МАҲСУЛОТ

2024 йил учун вилоят бўйича ялпи ҳудудий маҳсулот турлари бўйича жорий нархларда 146 385,2 млрд. сўмни ташкил этди ва 2023 йил билан таққослаганда 6,7 фоизга ўсди. ЯҲМ дефлятор индекси 2023 йилга нисбатан 112,9 фоизни ташкил қилди.



#### ҚУРИЛИШ ИШЛАРИ

2024 йилнинг январь-декабрь ойларида, вилоятда жами 24143,9 млрд. сўмлик қурилиш ишлари бажарилиб, ўсиш суръати 2023 йилнинг январь-декабрь ойларига нисбатан 110,1 фоизни ташкил этди. Қурилиш ишлари ҳажмида йирик қурилиш ташкилотлари 16,9 фоизни, кичик корхона ва микрофирмалар 40,7 фоизни ҳамда норасмий секторларда 42,7 фоизни ташкил қилди.

#### САНОАТНИНГ АСОСИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ

2024 йилнинг январь-декабрь ойларида вилоят корхоналари томонидан 139124,3 млрд. сўмлик sanoat маҳсулотлари ишлаб чиқарилган бўлиб, 2023 йилнинг январь-декабрь ойларига нисбатан sanoat ишлаб чиқаришининг физик ҳажм индекси 106,9 фоизни ташкил этди.

#### ЧАКАНА САВДО ТОВАР АЙЛАНМАСИ

Тадбиркорлик субъектлари фаолияти натижасида, 2024 йилнинг январь-декабрь ойларида вилоятнинг чакана савдо товар айланмаси 38662,8 млрд. сўмни ташкил этиб, 2023 йилга нисбатан 11,9 фоизга ўсди. Йирик савдо корхоналарининг чакана савдо товар айланмаси ҳажми 5 642,1 млрд. сўмни ташкил қилиб, ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 11 фоизга ошган.

#### ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИНГ АСОСИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ

2024 йил январь-декабрь ойларида кўрсатилган бозор хизматларининг иқтисодий фаолият турлари бўйича ҳажми 56 317,9 млрд. сўмни, шу жумладан, вилоятнинг республикадаги улуши умумий кўрсатилган хизматлар ҳажмининг 6,9 фоизини ташкил қилди. Ўтган йилнинг мос даврига нисбатан ўсиш суръати 112,8 фоизга етди.

#### КИЧИК КОРХОНА ВА МИКРОФИРМАЛАР

Рўйхатга олинган кичик корхона ва микрофирмалар 2025 йилнинг 1 январь ҳолатига 63,5 мингташи ташкил этди. Шундан фаолият юритаётган кичик корхона ва микрофирмалар (фермер ва деҳқон хўжалиқларисиз) сони жами 34 миң 389 та, шундан янги ташкил этилганлари 6 миң 787 та. Иқтисодий фаолият турлари бўйича энг кўп кичик корхона ва микрофирма савдо соҳасида 2 миң 603 та, sanoatда 1 миң 226 та ҳамда бошқа хизматлар бўйича 726 та янгидан ташкил этилган.

Ташкент вилояти Статистика бошқармаси



# “KOMPANIYA-KOOPERATIV-DEHQON XO‘JALIGI”

## ilg‘or tajribalar asosi



Seminarda ishtirok etgan viloyat hokimi Zoyir Mirzayev ijaraga berilgan yer va tomorqa xo‘jaliklaridan samarali foydalanish hamda mo‘l-ko‘l qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning zamonaviy usullari haqida o‘z fikr-mulohazalari va takliflarini bildirdi. Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan bu borada berilgan topshiriqlar asosida viloyatda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Qayd etilganidek, tumanda ijaraga berilgan yer maydonlari hamda tomorqa xo‘jaliklaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos ilg‘or ish usullari, tajriba va yutuqlari bor.

Jumladan, tumanning “Do‘stlik” mahallasidagi 500 xonadonning 167 tasida a‘lo navli, iste‘molboq qo‘ziqorin navlari yetishtirishda “kompaniya-kooperativ-dehqon xo‘jaligi” tamoyili puxta yo‘lga qo‘yilgan. Unga ko‘ra, yuzdan ortiq xonadon issiqxonalariga qo‘ziqorin urug‘i ekilib, xom ashyo yetishtirilsa, kooperativ tomonidan kelishilgan shartnoma asosida mahsulot sotib olinib, qayta ishlanadi. Zamonaviy usullarda qadoqlangan tayyor mahsulotlar supermarket va bozor-

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)



sababli urug‘lik olish, mahsulot yetishtirish va sotishda muammo yo‘q.

Ayniqsa, ekin parvarishida agrotexnik tadbirlarni vaqtida o‘tkazish, tomchilatib sug‘orish texnologiyasidan foydalanish yuqori samaradorlikni ta‘minlamoqda. Daromad esa yiliga 50 milliondan 300 million so‘mgacha yetmoqda.

Ammo, seminarda ta‘kidlanganidek, hamma joyda ham ishlar ko‘ngildagidek deb bo‘lmaydi. Viloyat hokimi ilg‘or tajribalarni sanab o‘tar ekan, ulardan samarali foydalanish, eng muhimi, tomorqa yerlarini daromad manbaiga aylantirish lozimligini qayta-qayta ta‘kidladi. Xususan, Toshkent tumanida gul yetishtirish, Piskent tumanida bedanachilikdagi ilg‘or tajribalar haqida gapirib, ularni ommalashtirish kerakligi haqida to‘xtaldi. Shuningdek, asalarichilik, parrandachilik, kartoshkachilik, quyonchilik sohalarni ham rivojlantirishga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘lishini qayd etdi.

Seminarda viloyat bo‘yicha ijaraga berilgan va tomorqa xo‘jaligi yer maydonlarining kamida 40 foizida kooperatsiya tashkili etish qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda yuqori samaradorlikka erishishda muhim o‘rin tutishi, bu borada lider tadbirkorlar, tajribali nuroniylar, bank xizmatlari, kooperatsiya usullaridan keng foydalanish zarurligi ta‘kidlandi.

**Ma‘murjon BOZORALIYEV**  
Shahobiddin NURIDDINOV  
olgan suratlar



larga chiqariladi hamda buyurtma asosida qo‘shni davlatlarga eksport qilinadi.

Hisob-kitoblarga qaraganda, tomorqa egalari mahsulotni ekish va yetishtirishga o‘rtacha 15 million so‘m sarflansa, olinadigan daromad 140 million so‘mga to‘g‘ri keladi. Yiliga 4 martagacha hosil olish mumkinligi hisobga olinsa, daro-

mad yanada salmoqli bo‘ladi.

Shuningdek, tomorqasida turli sabzavot va ko‘katlar yetishtirayotgan G‘ulomjon Abdunazarov, Mansur Payg‘ambarqulov, Mashrab Abdunazarov kabi tadbirkorlarning tajribasi ham maqtovgacha loyiq. Ular ham ishni kooperativ usulida tashkil etganlari

### “Toshkent haqiqati” tanishtiradi

## YANGI TAYINLOVLAR

**Xalilov Asatillo Normamat o‘g‘li – Toshkent viloyati hokimligi murojaatlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i etib tayinlandi.**

A. Xalilov 1992-yilda Samarqand viloyatida tug‘ilgan. Ma‘lumoti – oliy. 2017-yilda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetini tamomlagan.

Mehnat faoliyatini viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi ish yurituvchisi vazifasidan boshlagan.

Tayinlovga qadar, Toshkent viloyati hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi bosh mutaxassisi sifatida ishlab kelayotgan edi.



**Rixsiyev Farrux Rasuljonovich – Toshkent viloyati hokimligi qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha kotibiyat bosh mutaxassisi etib tayinlandi.**

F. Rixsiyev 1990-yilda Zangiota tumanida tug‘ilgan. Ma‘lumoti – oliy. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetlarini tamomlagan.

Mehnat faoliyati davomida viloyat hokimligi, Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi hamda O‘rta Chirchiq tumanida bir qator mas‘ul vazifalarda ishlagan.

Tayinlovga qadar, “Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi viloyatda biznes markazlarini qurish direksiyasi” DUK investitsiya, marketing, tanlov savdolarini tashkili etish va xo‘jalik-shartnoma munosabatlari bo‘limi yetakchi mutaxassisi vazifasida ishlab kelayotgan edi.



**Hoshimov Shuhrat O‘razaliyevich – Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari etib tayinlandi.**

Sh. Hoshimov 1976-yilda O‘rta Chirchiq tumanida tug‘ilgan. Ma‘lumoti – oliy. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini tamomlagan. Mutaxassisligi – iqtisodchi.

Mehnat faoliyati davomida O‘rta Chirchiq tumani hamda viloyat hokimligida mas‘ul lavozimlarda ishlagan.

Tayinlovga qadar, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig‘i vazifasida ishlab kelayotgan edi.



**Nizamudinov Shahboz Abdusamatovich – Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i v.b etib tayinlandi.**

Sh. Nizamudinov 1990-yilda Chinoz tumanida tug‘ilgan. Ma‘lumoti – oliy. 2024-yilda O‘zbekiston Milliy universitetini tamomlagan.

Tayinlovga qadar, “Chinoz hayoti” ijtimoiy-siyosiy gazetasi bosh muharriri lavozimida ishlab kelayotgan edi. Shu bilan birga, hozirgi kunda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi deputati sifatida ham faoliyat olib bormoqda.



**Qodirov Elbek G‘ofurovich – AT “Aloqabank” Toshkent viloyati Hududiy kompleks xizmatlar ko‘rsatish markazi Biznesni rivojlantirish bo‘yicha direktor etib tayinlandi.**

E. Qodirov 1991-yilda Buxoro viloyatida tug‘ilgan. Ma‘lumoti – oliy. 2012-yilda Toshkent moliya institutini tamomlagan. Mutaxassisligi – buxgalteriya hisobi va audit.

Tayinlovga qadar, AT “Aloqabank” Toshkent viloyati Hududiy kompleks xizmatlar ko‘rsatish markazi Korporativ biznes bo‘yicha direktor o‘rinbosari vazifasida ishlab kelayotgan edi.



Manba: <https://t.me/toshvilpress>

## KECHAGI YESHIM BUGUNGI MUAMMOGA MOS KELMAYDI



Shuningdek, muloqot davomida kambag‘allikdan chiqishning eng samarali yechimi – bu ta‘lim ekani ta‘kidlanib, bunday oilalar farzandlarini foizsiz ta‘lim krediti, qo‘shimcha grant ajratish orqali o‘qishga jalb qilish aytib o‘tiladi. Bilimga chanqoq, lekin oilaviy sharoiti og‘ir bo‘lgan yoshlarni xorijda o‘qitish bo‘yicha yangi tizim – “Yorqin kelajak” loyihasi joriy etilishi iqtidorli yigit-qizlarni kashf etishda muhim rol o‘ynashi shubhasiz.

Darvoqe, ilgari aksar xorij oliyog‘larining diplomini bilan yurtimizda ish topish amrimahol edi. Shu sababli, chet elda ta‘lim olgan talabalar imkon qadar o‘sha yerning o‘zidan ish topishga harakat qilishardi. Davlatimiz rahbari muloqotda shu masalaga ham to‘xtalib, endilikda Yoshlar ishlari agentligi xorijda o‘qiyotgan har bir talabaga bosh-qosh bo‘lishini, bilimli yigit-qizlar dunyoning “Top-100” oliyog‘lariga yuborilib, o‘qish va yashash xarajatlari qoplab berilishini, chet elda o‘qib kelganlarni milliy kadrlar zaxirasiga kiritilib, davlat organlariga tanlovsiz ishga qabul qilinishini ta‘kidlaganlari biz – yoshlar uchun yana yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Bundan tashqari, reytingi yuqori xalqaro universitetlarda ilmiy darajaga olgan 35 yoshgacha bo‘lgan yosh olimlarga uy-joy uchun 10 yil muddatga 800 million so‘mgacha foiz-

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

siz ssuda ajratilishi, nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib va sovrindor bo‘lganlar uchun bir martalik pul mukofoti miqdori 5 karraga oshirilishi yoshlarga yanada motivatsiya berishi turgan gap.

Yig‘ilishda yosh avlodga milliy ruhiyatni shakllantirish, g‘oyaviy xurujlar va zararli axborotlardan asrash masalalariga ham to‘xtalindi. Tarbiyasi og‘ir bolalarga alohida e‘tibor ko‘rsatish, hayotda o‘rinni topishga ko‘maklashish zarurligi aytiladi.

Muloqotda so‘zga chiqqanlar, ilgari surilgan reja va tashabbuslar yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratishi, ularning orzu-intilishlariga rag‘batlantiruvchi kuch bo‘lishini ta‘kidlashdi. Men ham uchrashuvdan olgan taassurotlarim asosida maqsadlarimni qayta tuzib, o‘z faoliyatimga yangicha yondoshishga qarat qildim. Eng muhimi, menar ishonilgan vazifani siddiqdildan bajarishga, universitetimiz yoshlarini yaratilayotgan keng imkoniyatlardan xabardor qilib borishga, ularga qo‘limgan kelganicha yordam berishga harakat qilaman.

Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek: “Yoshlar bilan ishlashda ko‘lamni keng, marrani baland olishimiz sharti”

**Sardorbek ISROILOV,**  
Toshkent davlat agrar universiteti  
Yoshlar ittifoqi yetakchisi

### Хамкорлик

## ЯПОНИЯЛИК ОЛИМ ОЛМАЛИҚДА ДАРС БЕРМОҚДА

Toshkent davlat texnika universitetining Olmaliq filiali horijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan uzviy hamkorlikni rivojlantirgan holda, ta‘lim jaraenlariga dunyoning etakchi universitetlaridan olimlarni jalb qilib kelmoqda. Jumladan, oliyog‘hning Kimé va tabiiy fanlar kafedrasida tashabbus bilan Yaponiyaning Kyusyo universitetidan taklif etilgan professor Kohe Torika kiméviy texnologiya iynalishi buyicha talabalarga ma‘ruza uqib, amaliy mashg‘ulotlar utkazmoqda.



Ma‘lumot uchun: Yaponiyaning Fuukoqa shaxrida joylashgan Kyusyo universiteti QS World University Rankings 2025 reytingida 167-urinda, TNE reytingida 301-350-urinda turuvchi eng nufuzli oliy ta‘lim muassasasi hisoblanadi.

Mazkur universitet professori Kohe Torika organik kimé sohasining eng etakchi olimlaridan bulib, bugungi kunda ilmiy tadqiqotlari bilan duné ilm hamjamiyatida uz urniga zga.

**Дилдора АБДУРАХМОНОВА**

### Саломат бўлинг!

**Машхур рус олими Данила Сущинский: “Инсоният дунёга келибдики, қанчадан-қанча касалликларни бошидан кечирган ва кўрган, ammo кутуриш касаллигига мубтало бўлган бемор аҳволини кўришдан ортқ кўрқинчи ва дахшатлироқ ҳолат бўлмаса керак”, деб ёзган экан.**

Халқаро ташкилотларнинг берган маълумотларига кўра, дунё бўйича ҳар йили кутуриш касаллигидан 60 мингга яқин одам вафот этади ва 1 миллиондан ортқ ҳайвон уни юктиради. Касалликнинг 95 фоизи дайди, қаровсиз итлар томонидан етказилган жароҳат туфайли келиб чиқади, унинг 85 фоизи қишлоқ жойлардаги аҳолига тўғри келади. Энг ачинарлиси, жароҳат олганларнинг 60-65 фоизи 14 ёшгача бўлган болалардир. Ҳўш, бу ута хавфли касаллик қандай юкиши мумкин?

Касалликни кўзгатувчи нейротроп вирус бўлиб, у касал ҳайвоннинг бош миясига кўпаяди ва сўлаги орқали ташқи муҳитга ажралади. Одамларга асосан кутурган ит ва мушуклар, шунингдек, ёввойи ҳайвонлар (бўри, чиябўри, тулки ва бошқалар)нинг

## ЛОҚАЙДЛИКДАН ФОЖИАГА БИР ҚАДАМ

тишлаши, тирнаши, сўлаги орқали юкади.

Ўзбекистонда одам учун касаллик ташувчи асосан итлар ҳисобланади. Касаллик ҳайвондан ҳайвонга ва ҳайвондан одамга юкади. Ammo одамдан одамга ва одамдан ҳайвонга юкмайди. Кутурган ҳайвонда касалликнинг яширин даври бир-икки ҳафта оралигида бўлиб, у ўлгунига қадар юкумли ҳисобланади.

Афсуски, бугунги кунгача кутуриш касаллигининг давоси топилмаган. Касаллик жуда оғир кечади ва 100 фоиз ўлим билан тугайди.

Бунинг олдини олиш учун нима қилиш керак?

Аввало, барча ҳушёр бўлиши, ўзи ва яқинларининг эҳтиёт чорасини кўриши керак. Зеро, кутуриш касаллигининг олдини олиш нафақат ветеринария ва тиббиёт ходимларига, балки барчамизга боғлиқ. Айниқса, ҳайвонларни сақлаш қондаларига риоя қилиш жуда муҳим.

Таъкидлаш жоизки, аксарият фуқароларнинг хонадонидо ит бор, лекин уни ўз вақтида ветеринария кўригидан

ўтказиб, кутуриш касаллигига қарши эмлатишмайди. Жабр кўраётганларнинг 80 фоиздан кўпроги айнан хонадон итларига тўғри келаётгани ҳам фуқароларнинг ит сақлаш қондаларига риоя қилмасликларини англатади.

Баъзи фуқаролар уйдаги ити касал бўлса, ёки уни боқа олмаса, ё бирор кишини тишласа, итни кўчага ҳайда келиш билан чекланишади. Шундан кейин улар касаллик юктирувчи айланиб, аτροφоддаларга катта хавф туғдиради.

Вилоятимизда кутуриш касаллигининг келиб чиқиши ва одамларга юкишининг олдини олиш мақсадида жойларда кенг қамровли профилактик тадбирлар ўтказилиб, аҳоли орасида, шунингдек, мактаб ва боғчаларда тарғибот, ташвиқот ва тушунтиришлар олиб борилмоқда. Бундан ташқари, ит сақлаш қондалари, касалликка оид варақа ва плакатлар тарқатилиб, оммавий ахборот воситалари орқали чиқишлар қилинмоқда.

Ҳудудларда тиббиёт, экология, факултетада вазиетлар ва ички ишлар вазиетлари ходимлари томонидан семинарлар ташкил этилмоқда.

Этиборлиси, давлат ветеринария хизмати томонидан рўйхатга олинган ит ва мушуклар режа бўйича касалликка қарши мунтазам эмланмоқда.

Юқоридо таъкидлаганимиздек, хавф остида қолаётганларнинг 50 фоиздан ортиги ёш болалар ва ўсимирларга тўғри келмоқда. Шунинг эътиборига олган ҳолда ота-оналар болаларни кўчадаги дайди, қаровсиз итлар билан уйнашларига, уларни уйга олиб келиши ва одамларга юкишининг олдини олиш мақсадида жойларда кенг қамровли профилактик тадбирлар ўтказилиб, аҳоли орасида, шунингдек, мактаб ва боғчаларда тарғибот, ташвиқот ва тушунтиришлар олиб борилмоқда. Бундан ташқари, ит сақлаш қондалари, касалликка оид варақа ва плакатлар тарқатилиб, оммавий ахборот воситалари орқали чиқишлар қилинмоқда.

**Наргиза НОРМАТОВА,**  
Санитария-эпидемиология осийишталик ва жамоат саломатлиги хизмати вилоят бoshқармаси шифокори





Бизнинг шарҳ

маҳаллаларнинг экологик қиёфасини яхшилаш, кўчаларда яшиллик даражасини ошириш, экологик жиҳатдан қулай ва фаровон яшаш муҳитини шакллантириш борасида белгиланган муҳим вазифаларга ҳам алоҳида тўхталсак.

Жорий 2025 йилнинг ўзид аҳоли учун барпо этилаётган пиёдалар ва алоҳида вело-

Бир қатор ҳудудлар қаторида Тошкент вилоятида давлат "инвитро" лабораториялари ташкил этилади. Хусусий "ин-витро" лабораториялари барпо этишга тадбиркорлик субъектларига кредитларни ажратиш учун халқаро молия институтларидан камида 30 миллион АҚШ доллари миқдорид а маблағлар жалб этилади. Қувонарлиси, жамоатчилик, экофаоллар ва бизнес вакилларининг табиати муҳофаза қилиш бўйича ташаббусларини қўллаб-қувватлаш акселерация тизими жорий этилади.

Қабул қилинган ҳужжатда шу ва бошқа муҳим янгилıklar талайгина. Шулардан яна бири 2025 йил 1 июнга қадар "Бир миллион яшил оила" умуммиллий ҳаракати доирасида махсус платформани яратиш ташаббусидир. Унга кўра, экологик тамойилларни ўзининг кундалик ҳаётига жорий этишда юқори кўрсаткичларга эришганларга "Экофаол

**Олимларнинг илмий изланишларига кўра, инсон саломатлигига салбий таъсир кўрсатувчи омилларнинг 25 фоизи айнан экология сабаб вужудга келар экан.**

сипед йўлаклари бўйида дарахлар ва ўсимликларни экиш орқали "Соғлиқ сайр кўчалари" тармоғи яратилади. Соҳил ва дарё бўйларида 80 та инфратузилма объекти ва 110 километрдан ортиқ соғломлаштириш йўлаклари қурилади. Энг муҳими, ёмғир ва оқова сувлардан самарали фойдаланиш, маҳаллалардаги дарахларни замонавий сув тежовчи технологиялар орқали суғориш тизимини жорий этиш натижасида яшиллик даражаси кескин оширилади.

Бундан ташқари, аллақачон умуммиллий ҳаракатга айланиб улгурган "Яшил макон" ва "Менинг боғим" лойиҳалари доирасида 200 миллион туп дарах ҳамда буталар экилиб, "яшил боғлар" ва

**Ўзбекистон иқлими шароитида кўшли кун давомийлиги 10 соат, шунингдек, бир йилнинг 300 кунидан зиёдроғи офтобли ўтади. Булар – мамлакатнинг, айниқса, узоқ, тоғли ва бориш қийин бўлган ҳудудларни энергия билан таъминлашда жуда қулай, иқтисодий жиҳатдан ҳам тежамкор манбалардир.**

"яшил жамоат парклари"да кўш панеллари ёрдамида қувватланувчи ёриткичлардан фойдаланилади. Бу ҳам тежамкорлик, ҳам тоза ва қулай муҳит яратилади, дегани.

Албатта, бу йилги давлат дастурида ҳам қуриб қолган Орол ҳудудида алоҳида эътибор қаратилган. Хусусан, Орол денгизи тубида 100 минг гектар "яшил майдон" барпо этилади. Оролбўйи минтақасидаги ўрмонзорлар 2,1 миллион гектарга етказилади. Нуфузли тадқиқот институтлари ҳисоб-китобларига кўра, Қорақалпоғистонда 680 гигаваатт қуёш, 120 гигаваатт шамол энергияси салоҳияти бор. 2030 йилга қадар Қорақалпоғистонда 11 миллиард доллар тўғридан-тўғри инвестиция ҳисобига, жами 10,3 гигаваатт қувватга эга 10 та йирик шамол электр станцияси қурилиши режалаштирилган. Бу лойиҳалар тўлиқ ишга тушиши ҳисобига йилга 35 миллиард киловатт соат "яшил" энергия олинади.

Яна бир гап. Ҳужжатда ўрмон билан қопланган майдонлар 4,1 миллион гектарга етказилиши ва муҳофаза қилинадиган табиий ҳудудлар 14,5 фоизгача кенгайтирилиши ҳамда уларнинг экотуризм, кўчатчилик ва дориворчилик йўналишларидаги фойдаланилмаётган захиралари аниқланиб, бу имкониятлардан тўлиқ фойдаланилиши ва аҳоли даромадлари оширилиши назарда тутилган.

**Эрали НОРБЕКОВ, "Тошкент ҳақиқати" шарҳловчиси**

# ДАСТУРГА АМАЛ – КЕЛАЖАККА ТАМАЛ

...бу тун дунёдаги кўллаб мамлакатлар иқлим ўзгаришларининг салбий оқибатларини яққол ҳис қилапти. Ҳаво ва сувнинг ифлосланиши, тупроқ эрозияси, чўлланиш, қазилма ёқилғиларни беҳисоб ишлатиш глобал исишга, табиий офатларнинг кўпайишига олиб келяпти.

Жорий йилдан жеттақчиллигини ЯИМга нисбатан 3 фоиз даражасида сақлаш, пировардида, камбағалликни қисқартириш ва аҳоли фаровонлигини ошириш мақсад қилинган.

Жорий йилдан жеттақчиллигини ЯИМга нисбатан 3 фоиз даражасида сақлаш, пировардида, камбағалликни қисқартириш ва аҳоли фаровонлигини ошириш мақсад қилинган.

Жаҳон тажрибасига назар солсак, муқобил энергиядан фойдаланиш – иқтисодиётнинг ҳар жаҳасини ривожлантиришда самарали усул эканлиги ўз исботини топган. Қолаверса, бундай энергия манбалари анъанавийларига нисбатан тежамкорлиги, ўзининг экологик жиҳатдан безарарлиги билан алоҳида ажралиб туради.

Маълумотларга кўра, серкўш диёримизда қайта тикланувчи энергия манбаларининг умумий кўлами 51 млрд. тонна нефть эквивалентига тенг экан. Масалан, Ўзбекистон иқлими шароитида кўшли кун давомийлиги 10 соат, шунингдек, бир йилнинг 300 кунидан зиёдроғи офтобли ўтади. Булар – мамлакатнинг, айниқса, узоқ, тоғли ва бориш қийин бўлган ҳудудларни энергия билан таъминлашда жуда қулай, иқтисодий жиҳатдан ҳам тежамкор манбалардир.

Юртимизда деярли барча фаслларда кўш ўзининг саҳий нурларини сочиб туришини инобатга олсак, мана шундай табиий ва муқобил энергия ишлаб чиқаришда гоят қатти имкониятлар мавжуд. Шу боис 2025 йилдан умумий қуввати 4,5 ГВт. бўлган йирик кўш ва шамол электр станциясини ишга тушириш дастурга қиритилган. Шунингдек, қуввати 785 мегаватт бўлган кўш панелларини ўрнатиш, 225 мегаваттлик гидроэлектр станцияларини барпо этиш режалаштирилган.

Булар орқали жами қайта тикланувчи энергия манбалари улуши электр энергияси ишлаб чиқаришда 26 фоизга ва жами генерация қувватлари таркибидаги улуши 40 фоизга етказилиши кўзда тутилган.

Яна бир муҳим жиҳати – шу сингари "яшил технологиялар" қишлоқ ҳўжалиги, энергетика, саноат, транспорт, таълим ва фан соҳаларига кенг татбиқ этилса, нафақат тежамкорлик, иқтисодий ривожланиш каби ижобий ўзгаришлар юз беради, балки янги иш ўринларини яратиш имконияти ҳам туғилади. Бу эса, ҳар жиҳатдан жиддий ўйлаб кўришга арзийдиган масала.


Давлат дастурида белгиланган муҳим ислохотларга бирма-бир назар ташлаб бораверар эканмиз, хонаси келгани боис,

Инсон туғилиб қана шу бепойн оламнинг бир парчаси, она табиатнинг ажралмас бўлагига айланади. Бундан одам ўзини рўйи заминдан айро тасаввур қилолмайди. Шундай экан, дунё тамаддуни ҳам барчамизнинг кўвончимиз, унинг йўқотишларини, муаммоси эса бани инсоният дардидир. Зеро, бугун биз атроф-муҳит ифлосланиши, иқлим ўзгаришлари, бесамар фойдаланилаётган табиий ресурсларнинг камийиши бораётганлиги билан боғлиқ чинакам глобал муаммолар гирдобидамиз. Бу эса барқарор

гайтириш бўйича турли акция ва фестиваллар ташкил этилаётир. Экологик муаммоларнинг олдини олиш борасида тизимли ишлар қилинмоқда.

Давлатимиз раҳбари томонидан 2025 йил 30 январда "Ўзбекистон-2030" стратегиясини "Атроф-муҳитни асраш ва яшил иқтисодиёт" йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида"ги Фармон имзолангани – бу борадаги саясий ҳаракатларимизнинг узвий ва мантиқий давоми дейиш мумкин.

Мазкур дастуриламал ҳуж-



ривожланишга барчанинг эътиборини қайта ва яна қайта қаратишни тақозо қилади.

Сўнги йилларда экологик масалалар Ўзбекистон давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланган. Атроф-муҳит муҳофазаси, биологик хилма-хилликни сақлаш, "яшил" иқтисодиётга ўтиш, қаттиқ маиший чиқиндилар билан боғлиқ йўналишларда аниқ ва мақсадли ҳаракатлар олиб борилмоқда.

Орол фожиаси ва бошқа минтақавий экологик муаммоларга – жаҳоннинг энг юксак минбарларидан туриб эътибор қаратилди. Мамлакатимизда 2025 йил – "Атроф-муҳитни асраш ва яшил" иқтисодиёт йили" деб эълон қилинган ҳам Ўзбекистонда бу муаммолар билан астойдил курашилаётганининг ёрқин ифодасидир.

Чунки ҳали қилинадиган ишлар бисёр ва бу албатта, ҳамжиҳатликдаги камарбасталикни назарда тутуди. Агар бугунги экологик муаммоларни бир қадар таҳлил қиладиган бўлсак, нафақат Ўзбекистон, балки бутун дунёдаги кўллаб мамлакатлар иқлим ўзгаришларининг салбий оқибатларини яққол ҳис қилапти. Ҳаво ва сувнинг ифлосланиши, тупроқ эрозияси, чўлланиш, қазилма ёқилғиларни беҳисоб ишлатиш глобал исишга, табиий офатларнинг кўпайишига олиб келяпти. Устига-устак саноатнинг жадал ривожланиши, пайдар-пайига кечаётган режасиз қурилишлар, дарахларнинг аёвсиз кесиб ташланиши, транспорт воситаларининг кўпайиши – булар, ўз навбатида, атроф-муҳит ва аҳоли саломатлигига жиддий зарар етказмоқда.

Олимларнинг илмий изланишларига кўра, инсон саломатлигига салбий таъсир кўрсатувчи омилларнинг 25 фоизи айнан экология сабаб вужудга келар экан. Айни шу омилларни инобатга олиб, бундан бир неча йил аввал мамлакатимизда "Яшил макон" умуммиллий ҳаракати бошланди. Лойиҳа доирасида ҳар йили юртимиз бўйлаб 200 миллиондан ортиқ кўчатлар қадалди. Ён-атрофимиз кўкаламзорлаштирилишига каттагина ҳисса қўшилди ва бу хайрли ташаббуслар ҳали-ҳамон давом этмоқда. Атроф-муҳитни асраш, яшил ҳудудларни кен-

жатда маҳаллаларнинг экологик қиёфасини яхшилаш, кўчаларда яшиллик даражасини ошириш, экологик жиҳатдан қулай ва фаровон яшаш муҳитини яратиш, шунингдек, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини асраш, "яшил иқтисодиёт" тамойилларини кенг жорий қилиш каби устувор вазифалар белги-




ланган. Бундан бу ёғига республика энергодолансида қайта тикланувчи энергия улуши оширилиб, давлат-хусусий шериклик асосида йирик "яшил энергия" станциялари барпо этилади. Бунинг учун ишбилармонлар ва тадбиркорлик субъектларига кенг имконият ҳамда имтиёзлар тақдим этилади. Шунингдек, ҳудудларда кичик ва микро гидроэлектр станциялари тармоғини кенгайтириш, аҳоли хонадонларида кўш панелларини ўрнатиш муносиб рағбатлантириб борилади. Бундан ҳам давлат, ҳам жамият манфаат топади. Айниқса, чекка-чекка ҳудудларда истиқомат қилаётган қорақўзларимиз ҳам "электр энергияси тақчиллиги" деган муттасил му-

ланган. Бундан бу ёғига республика энергодолансида қайта тикланувчи энергия улуши оширилиб, давлат-хусусий шериклик асосида йирик "яшил энергия" станциялари барпо этилади. Бунинг учун ишбилармонлар ва тадбиркорлик субъектларига кенг имконият ҳамда имтиёзлар тақдим этилади. Шунингдек, ҳудудларда кичик ва микро гидроэлектр станциялари тармоғини кенгайтириш, аҳоли хонадонларида кўш панелларини ўрнатиш муносиб рағбатлантириб борилади. Бундан ҳам давлат, ҳам жамият манфаат топади. Айниқса, чекка-чекка ҳудудларда истиқомат қилаётган қорақўзларимиз ҳам "электр энергияси тақчиллиги" деган муттасил му-

ланган муҳим ислохотларга бирма-бир назар ташлаб бораверар эканмиз, хонаси келгани боис,

ўзгаришга мослашиш, "яшил технология"лар трансфертирини инобатга олган ҳолда глобал



ўзгаришга мослашиш, "яшил технология"лар трансфертирини инобатга олган ҳолда глобал

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)





**TOSHKENT HAQIQATI**  
**TASHKENTSKAYA PRAVDA**

Muassis:

**TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI**



“Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalarini tahrir hay'ati:

Zoyir MIRZAYEV  
(tahrir hay'ati raisi)

Abdusamad NOSIROV

Ummat MIRZAQULOV

Hotamjon SAYDAHMEDOV

G'afurjon MUHAMEDOV

Sayyora FAYZIYEVA

Tohir ARIPOV

Mahmud TOIR

Uskenboy ATEMOV

Abdulla XURSANOV

Kumush EGAMBERDIYEVA

Behzod QOBULOV

Olimjon BEGALIYEV

Zarifa ERALIYEVA

Sergey MUTIN

Bosh muharrir:

G'ayrat SHERALIYEV

Qabulxona:  
(55) 520-64-95

Bosh muharrir o'rinbosari:

(55) 520-04-10

Mas'ul kotib:

(55) 520-05-10

Bo'lim muharrirlari:

(55) 520-06-20, (55) 520-04-20

E'lonlar va hisob-kitob bo'limi:

(55) 520-21-20

e-mail: toshkentaqiqati@umail.uz

Mas'ul kotib:

Alloma AZIZOVA

Navbatchi:

Mehridin IBRAGIMOV

Ekspeditor:

Behruz NURBOBOYEV

Bosishga topshirish vaqti – 21.00.

Bosishga topshirildi – 19.30.

Nashr ko'rsatkichi – 205.

Buyurtma G-235.

3 931 nusxada chop etildi.

Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida

bosildi. Qog'oz bichimi A-2.

**Bahosi kelishilgan narxda.**

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy

kommunikatsiyalar boshqarmasida

2011-yil 12-yanvarda

03-001 raqami bilan

ro'yxatga olingan.

Manzil:

111500, Nurafshon shahri,

Toshkent yo'li ko'chasi, 90.

Toshkent shahridagi

ofisimiz: Bektemir tumani,

Ittifoq ko'chasi, 2.

**ISSN 2010-9318.**

Gazeta «Toshkent haqiqati»

tahririyati kompyuter markazida

terildi va Tahir Mahmudxo'jayev

tomonidan sahifalandi.

Haftaning

chorshanba va shanba

kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa

aksiyadorlik kompaniyasi

bosmaxonasida bosildi.

Korxonalar manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.



**Бангладешда футбол бўйича ампутант терма жамоалар ўртасидаги Осиё чемпионати якунланди. Илк бор ўтказилган мазкур қитъа биринчилигида Ўзбекистон терма жамоаси чемпионликни қўлга киритди.**



▼ Фахр

Вакилларимиз гуруҳ босқичида Индонезия (8:1), Бангладеш (3:0), Непал (13:0) ва Ироқни (4:1) ишончли ҳисобларда мағлуб этиб, ҳал қилувчи баҳсга йўллангани қўлга киритишганди. Финалда эса уларга яна ўша эски рақиб – Индонезия рўбарў келди. Голларга бой ўтган учрашувда вакилларимиз рақиб дарвозасига жавобсиз 6 та тўп киритиб, Осиёда тенгсиз эканлигини исботлашди. Кунни кеча давлатимиз раҳбари олимпия ва паралимпия ҳаракатини янада ривожлантириш, оммавий спортни янги босқичга олиб чиқиш ҳамда аҳолининг жисмоний фаоллигини ошириш чора-тадбирлари юзасидан ўтказилган видеоселектор йўғилишида терма жамоани қўлга киритган ютуқлари билан табриқлаб, улар ҳақиқий ўзбек матонати тимсоли эканини таъкидлагандилар. Эътиборлиси, ана шу матонат тимсолларидан 4 нафари Тошкент вилояти фарзандларидир. Қуйида ана шу тўрт қаҳрамон ҳақида тўхталиб ўтамиз.

### ЭНГ КУЧЛИ ДАРВОЗАБОН

Ҳар қандай футбол мусобақаларида дарвозабон “ярим жамоа” бўлади. Унинг ишончли ҳаракати жамоанинг муваффақиятини таъминлаши кўп бор тасдиғини топган. Мазкур қитъа биринчилигидан кубок билан қайтишимизда ҳам айнан дарвозани ишончли қўриқлаган посбон – Қудрат Тўрахўжаевнинг ҳиссаси улкан. Паркентлик қаҳрамон Осиё чемпионатида ўтказилган 5 та учрашувнинг 4 тасида майдонга тушиб, бор-йўғи 2 бор гол ўтказиб юборди, 2 та учрашувда дарвозаси дахлсизлигини сақлашга муваффақ бўлади. Ҳал қилувчи баҳсда рақибларга асло имконият қолдирмай, ажойиб ҳаракат қилган вакилимиз якунда турнирнинг “Энг яхши дарвозабони” деб топилди.

Унинг мазкур турнирда кўрсатган ажойиб ҳаракатлари тасодиф ёки омад эмас, балки йиллар давомида тўплаган тажриба маҳсулидир. Қудрат 1987 йил Паркентнинг Номданак қишлоғида туғилган.

– Ушбу спорт турига кириб келишимга отам сабабчи бўлганлар, – дейди Осиёнинг энг кучли дарвозабони. – Улар нафақаларини олишга бораётганларида Ўзбекистон парафутбол терма жамоасининг асосини ташкил қилувчи “Матонат” клуби Ангренга машғул ўтказиш учун келганини қўриб қолганлар. Жамоада мен каби саломатлигида нуқсонли боллар ҳаракат қилишни қўриб, менга ушбу спорт тури билан шуғулланишни тавсия қилгандилар. Болалигимдан футболга қизиқганим бос жуда ҳам хурсанд бўлганман. Кейин отам билан клубнинг машғул базасига бориб, мураббийлар билан суҳбатлашганман. Шу-шу мазкур спортда фаолиятимни давом эттириб келаяман.

Вилоят ўғлини 4 бор жаҳон чемпионатида иштирок этган. Унинг илк мундиали 2010 йилда Аргентинада ўтган жаҳон чемпионати бўлган. Дунё-

нинг энг кучли жамоалари йўғилган мазкур нуфузли турнирда матонатли ҳамюртларимиз бор маҳоратларини намойиш этиб, олтин медални қўлга киритишган. Ушанда Қудрат терма жамоа посбони сифатида барча учрашувларда майдонга тушган.

Орадан икки йил ўтиб Россиянинг Калининград шаҳри мезбонлик қилган навбатдаги жаҳон чемпионатида ҳам вакилларимиз чемпионликни тантана қилишди. Ушанда ҳам

бошимдан кечирганман, спортдан кетмоқчи ҳам бўлганман, деган гапларини эшитиб қолам. Менда бундай фикр хаёлга ҳам келмаган. Синовлар инсонни тоблади. Аксинча, мени спортдан кетказмоқчи бўлишган. Баъзан машғулотлардан чарчаб, уйга қайтаётганимни кўрганлар, атрофдагиларнинг айримлари: «Қўйсангчи шу спортни, ундан кўра бошқа касбни танла. Футболдан нон топа олмайсан», дея «маслаҳат» беришарди. Бироқ, бу гапларга эътибор қилмай,

кистон ампутантлар терма жамоасининг бугунга қадар эришган барча тарихий муваффақиятларига ҳисса қўшиб келаётган кам сонли парафутболчилардан. У 2007 йилда Туркияда ўтган жаҳон чемпионатида терма жамоа таркибиди илк чемпионликни қўлга киритган. Бу Ўзбекистон терма жамоасининг жаҳон чемпионатларидаги илк олтин медали эди. Ушбу муваффақиятдан сўнг у “Ўзбекистон ифтихори” кўкрак нишони билан тақдирланган.

Бехзод Ҳақимов 40 ёшда бўлишига қарамай ҳали ҳам юқори спорт формада эканлигини мазкур турнирда барчага кўрсатиб қўйди. У парафутболга 2004 йилда кириб келган. Қибрайлик тажрибали футболчининг карьераси муваффақиятли бошланган. 2007 йилги жаҳон чемпионатида жўнаб кетиш арафасида орттириб олинган оғир жароҳат сабабли Б.Ҳақимов номи иштирокчилар рўйхатидан тушиб қолади. Бу унга руҳан зарба бўлди. Шундан сўнг парафутболчи

## ЎЗБЕКНИНГ МАТОНАТ ТИМСОЛЛАРИ

### Улар сафида вилоятимизнинг ТўРТ ҚАҲРАМОНИ ҲАМ БОР!

терма жамоа дарвозасини Қудрат Тўрахўжаев муносиб қўриқлаб, якунда “Энг яхши дарвозабон” мукофоти-га лойиқ кўрилади.

2014 йилда Мексика яшил майдонларида ўтган мундиаль эса аламли хотиралар билан ёдда қолган. Гуруҳ босқичида муваффақиятли иштирок этган ҳамюртларимиз чорак финалда Ангола жамоасига ягона автогол эвазига мағлуб бўлишди. Ушанда ҳам терма жамоа посбони паркентлик голкиперга ишониб топширилган.

Шундан сўнг орада 8 йил танаффус юзага келди. ФИФАнинг қарори билан жаҳон чемпионатлари ҳар тўрт йилда ўтказиладиган бўлди. 2018 йилда ўтган мундиальда терма жамоамиз баъзи сабабларга кўра иштирок этмади. 2022 йилда Туркия мезбонлик қилган жаҳон чемпионатида эса вакилларимиз халқаро мусобақаларга қайтиш қилиши ҳамда бронза медалини қўлга киритишди. Ушбу мундиальда ҳам Паркент ўғлини “ярим жамоа” позициясида ишончли ҳаракат қилади.

### БЎКАЛИК ЧЕМПИОН

Ўзбекистон парафутбол терма жамоасининг уч дарвозабонидан икитаси Тошкент вилоятидан. Биринчиси, Қудрат Тўрахўжаев бўлса, иккинчиси Суннатжон Эргашев. 2002 йилда туғилган бўкалик посбон Бангладешда ўтган қитъа биринчилигида тарихий чемпионликни қўлга киритганлар орасида энг ёшларидан саналади. У гуруҳ босқичида Непалга қарши баҳсда терма жамоа дарвозасини ишончли қўриқлаб, «қуруқ» ўйин ўтказди. Шунингдек, ҳал қилувчи учрашувнинг иккинчи бўлимида «ярим жамоа» вазифасини ажойиб тарзда удралади. Шу тариқа, бўкалик ёш иқтидор дарвозасига йўл топиш бирор рақибга насиб қилмади.

Суннатжон мазкур спорт тури билан 2019 йилдан бери шуғулланиб келмоқда. Ёш дарвозабон бунга қадар бир неча халқаро мусобақаларда юртимиз шарафини ҳимоя қилган. Хусусан, 2022 йилда Туркияда ўтган жаҳон чемпионатида бош жамоа таркибиди бронза медалини қўлга киритиб, мамлакат парафутболи ишончли қўриқларда эканлигини амалда исботлаган.

– Ҳар бир спорт турининг ўзига яраша қийинчиликлари бор, – дейди 23 ёшли Осиё чемпиони. – Баъзи спортчиларнинг интервьюларида мен мана бундай қийинчиликларни



сабр билан олға интилавердим. Бунда ота-онамнинг ишончи катта куч берарди. Бугунга қадар эришган ютуқларимда уларнинг улкан ҳиссалари бор. Осиё чемпионлиги биз учун ҳали бошланиши. Олдимизда 2026 йилда ўтадиган жаҳон чемпионати кўтиб турибди. Мазкур нуфузли мусобақада олтин медални қўлга киритиб, юртимиз байроғини кўкка кўтаришни мақсад қилганмиз.

### НУРАФШОНЛИК “ТАРИХШУНОС”

Қўлга киритилган тарихий чемпионликка улкан ҳиссаси сингган яна бир чарм тўп устаси – Ҳайдарали Турсунбоев. Марказий ҳимоячи позициясида ҳаракат қиладиган парафутболчи Осиё чемпионатида барча учрашувларда майдонга тушиб, мудофаадаги вазифасини аъло даражада удралаш билан бир қаторда рақиблар дарвозасини икки бор ишғол қилишга ҳам эришди. 40 ёшли ҳимоячининг ўз жарима майдо-нида рақиб футболчиларига ҳеч қандай имконият қолдирмагани яқиний рақамларда ҳам акс этди: жамоа 5 та учрашувда рақиблар дарвозасини 34 бор ишғол этиб, ўз дарвозасидан бор-йўғи 2 маротаба тўп олиб чиқди.

Аслида, Ҳайдарали Турсунбоев ҳам тажрибали парафутболчиларимиздан. 1984 йилда Нурафшон шаҳрида туғилган чарм тўп устаси мазкур спорт турига 10 ёшда кириб келган. Эътиборлиси, ҳимоячи Ўзбе-

Орадан 3 йил ўтиб Аргентинада ўтган, 2012 йилда эса Россия мезбонлик қилган мундиальларда ҳам вакилларимиз чемпионликни тантана қилишди. Ушбу дунё биринчилигидаги қаҳрамонларимиз орасида ҳам Ҳайдарали Турсунбоев бор эди. Ўзбекистон терма жамоаси кетма-кет учта жаҳон чемпионатида зафар қучган ягона жамоа бўлиб турибди. Бугунга қадар на футболда, на парафутболда бирор терма жамоа бундай натижага эриша олмаган. Ушбу тарихий натижада эса терма жамоанинг мудофаа чизиги етакчиларидан ҳисобланган вилоят ўғлининг муносиб ҳиссаси бор.

У Россияда ўтган мундиальдаги муваффақиятдан сўнг “Дўстлик” ордени билан ҳам тақдирланган. Нурафшонлик ҳимоячи бу билан тўхтаб қолмоқчи эмас. У 2026 йилда ўтиши режалаштирилган жаҳон чемпионатида ҳам терма жамоа либосида майдонга тушиб, чемпионликни қўлга киритишни мақсад қилган.

### ҚИБРАЙЛИК “ДЕВОР”

Бангладешда қаҳрамонлик кўрсатганлардан яна бири – Бехзод Ҳақимов. Қибрайлик чарм тўп устаси мазкур қитъа биринчилигида вилоятдоши Ҳайдарали Турсунбоев билан биргаликда мудофаа кўрғониди “миссия”-сини аъло даражада бажарди. Рақиб футболчилар улар ташкил қилган “девор”дан ўта олишмади ҳисоб.

бир йил муолажа олди.

– Ушанда тушқунликка тушиб қолган, – дейди қибрайлик чемпиони. – жамоадошларим чемпионликни қўлга киритишганидан сўнг мени кўргани келиб, бу совринда менинг ҳам ҳиссам борлигини, тезроқ тузатиш сафага қайтишимни айтишганида ич-ичимдан ёлғиз эмаслигимни ҳис қилдим. Уларнинг ишончи туфайли яна майдонга қайтдим.

Маҳоратли чарм тўп устаси 2012 йилда ўтказилган дунё биринчилигида жамоа билан олтин, 2022 йилда эса бронза медални қўлга киритган. Айниқса, унинг Туркияда ўтган сўнги жаҳон чемпионатининг гуруҳ босқичида Осиёнинг энг кучли жамоаларидан саналган Эронга қарши ўйинда мудофаа кўрғониди бирор рақиб футболчисига “кун бермагани” муҳлис-у мутахассислар эътирофига сабаб бўлганди.

Юқорида санаб ўтилган тўртовлон бугун Ўзбекистон ампутантлар терма жамоасининг муҳим фигураларидан саналишади. Давлатимиз раҳбари уларни беҳиз ўзбек матонати тимсоли, дея таърифламади. Уларнинг ҳар бири ҳозирги даврга эришгунга қадар не-не “қора” кунларни бошидан кечирмаган. Бугунги муваффақиятлар ана шу машаққат маҳсули саналади. Уларнинг келгуси мусобақаларда ҳам юқори ўринларни эгаллаб, мамлакатимиз шаънини халқаро майдонларда муносиб ҳимоя қилишларига тилақдошим.

**Сухробжон САДИРОВ,**  
“Тошкент ҳақиқати”  
шарҳловчиси